

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

**O‘ZBEKISTON RADIOELEKTRONIKA, ELEKTROTEXNIKA VA ASBOBSOZLIK
SANOATI KORXONALARI UYUSHMASI (“O‘ZELTEXSANOAT” UYUSHMASI)
FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA**

LexUZ sharhi

Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 6-fevraldagi PQ-2123-sonli “2014 — 2018-yillarda respublika elektrotexnika sanoatini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xo‘jalik boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2003-yil 22-dekabrda PF-3366-son **Farmonini** bajarish yuzasidan va radioelektronika, elektrotexnika va asbobsozlik tarmoqlarini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

1-ilovaga muvofiq korxonalar “O‘zeltexsanoat” uyushmasi qatnashchilari hisoblanishi; uyushmaning faoliyati uning tarkibiga kiruvchi korxonalar, tashkilotlarning ixtiyoriy ajratiladigan mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobiga amalga oshirilishi;

“O‘zeltexsanoat” uyushmasi ijro etuvchi organining huquqlari, funksiyalari, javobgarligi va vazifalari uning qatnashchilarining umumiy yig‘ilishi tomonidan belgilanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “O‘zeltexsanoat” uyushmasi qatnashchilarining quyidagilar uyushmaning asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari hisoblanishi haqidagi taklifiga rozilik berilsin:

ilg‘or xalqaro tajribani hisobga olgan holda radioelektronika, elektrotexnika va asbobsozlik sanoatini barqaror rivojlantirishning istiqbolli strategiyasini belgilash;

marketing tadqiqotlarini tashkil etish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning yangi turlarini ishlab chiqarishni o‘zlashtirishda, ularning jahon bozorlariga kirib borishida ko‘maklashish;

uyushma qatnashchilari bo‘lgan korxonalariga resurs va energiyani tejavchi samarali texnologiyalarni joriy etishda, buyumlar va butlovchi materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rivojlantirishda, korxonalarini zamonaviylashtirish va texnologiya bilan qayta jihozlashda, ushbu maqsadlar uchun xorijiy investitsiyalarni keng jalb etishda yordam ko‘rsatish;

korxonalariga axborot xizmatlari ko‘rsatish, muhandis-texnik va boshqaruv xodimlari menejmentning zamonaviy usullarini va bozor sharoitlarida ishlashni egallab olishlari maqsadida ularning malakasini oshirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etishda ko‘maklashish.

3. “O‘zeltexsanoat” uyushmasining tashkiliy tuzilmasi va xodimlarning cheklangan umumiy soni 33,5 shtat birligi, shu jumladan boshqaruv xodimlari 22 kishi bo‘lgan uning boshqaruv ijro etuvchi apparati tuzilmasi **2** va **3**-ilovalarga muvofiq ma’qullansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasining “O‘zeltexsanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalarining ustav sarmoyalarida aksiyalar (ulushlar)ning davlat paketlarini ishonchli boshqaruvga berish to‘g‘risidagi shartnomalarni ular tanlov asosida professional boshqaruvchi kompaniyalarga berilgungacha uzaytirish haqidagi taklifiga rozilik berilsin.

5. “O‘zeltexsanoat” uyushmasi ikki oy muddatda qatnashchilarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazsin, uyushmaning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlasin va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga taqdim etsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat statistika qo‘mitasi respublikaga olib kelinayotgan radioelektronika, elektrotexnika, asbobsozlik tovarlari to‘g‘risida, ularni uyushma korxonalarida ishlab chiqarishni o‘zlashtirish uchun muntazam axborot olishda “O‘zeltexsanoat” uyushmasiga ko‘maklashsinlar.

7. Vazirlar Mahkamasining “O‘zeltexsanoat” O‘zbekiston radioelektronika, elektrotexnika va asbobsozlik sanoati korxonalarini uyushmasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to‘g‘risida” 1994-yil 17-martdagi 144-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari O‘.T. Sultonov zimmasiga yuklansin.

Vazirlar Mahkamasining Raisi I. KARIMOV

Toshkent sh.,
2004-yil 30-aprel,
205-son

Vazirlar Mahkamasining
2004-yil 30-apreldagi 205-son qaroriga
1-ILOVA

“O‘zeltexsanoat” uyushmasi qatnashchilari bo‘lgan korxonalar ro‘yxati

I. Kabel-sim mahsulotlari, xalq iste‘mol tovarlari va yangi materiallar ishlab chiqaradigan korxonalar

1. “O‘zkabel” davlat-aksiyadorlik jamiyati, Toshkent shahri
2. “Andijonkabel” ochiq aksiyadorlik jamiyati O‘zbekiston-Rossiya qo‘shma korxonasi, Xonobod shahri
3. “Kosmos Oriyental Investment LTD” xorijiy kompaniyaning (Gonkong) “Vika Enterprayz” sho‘ba korxonasi (Toshkent shahri)
4. “Doyche Kabel AG Toshkent” ochiq aksiyadorlik jamiyati O‘zbekiston-Germaniya qo‘shma korxonasi, Toshkent shahri
5. “Spektr” mas‘uliyati cheklangan jamiyat O‘zbekiston-Rossiya qo‘shma korxonasi, Toshkent shahri
6. “O‘zglaszayden” O‘zbekiston-Shveysariya qo‘shma korxonasi, Toshkent shahri

II. Past voltli apparatlar, shchit qurilmalari, liftlar va xalq iste‘mol tovarlari ishlab chiqaradigan korxonalar

7. “O‘zelektroapparat” ochiq aksiyadorlik jamiyati, Toshkent shahri
8. “Rele va avtomatika” ochiq aksiyadorlik jamiyati, Toshkent shahri
9. “SABEN” ochiq aksiyadorlik jamiyati, Toshkent shahri
10. “Samarqand liftqurilishi zavodi” ochiq aksiyadorlik jamiyati, Samarqand shahri
11. “Elga-Osiyo” mas‘uliyati cheklangan jamiyat O‘zbekiston-Rossiya qo‘shma korxonasi, Toshkent shahri
12. “Toshelektroapparat” mas‘uliyati cheklangan jamiyat O‘zbekiston-Buyuk Britaniya qo‘shma korxonasi, Toshkent shahri

III. Elektron texnika, priborlar, aloqa apparatlari va xalq iste‘mol tovarlari ishlab chiqaradigan korxonalar

13. “Foton” ochiq aksiyadorlik jamiyati, Toshkent shahri
14. “Algoritm” ochiq aksiyadorlik jamiyati, Toshkent shahri
15. “Oniks” ochiq aksiyadorlik jamiyati, Toshkent shahri
16. “Elekor” ochiq aksiyadorlik jamiyati, Toshkent shahri
17. Davlat mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent shahri
18. “Kvark” davlat ilmiy-ishlab chiqarish kompleksi, Toshkent shahri
19. “Foton” davlat tajriba-konstruktorlik byurosi, Toshkent shahri
20. “UMT-Radio” mas‘uliyati cheklangan jamiyat O‘zbekiston-Turkiya qo‘shma korxonasi, Toshkent shahri
21. “SMG-Oniks” mas‘uliyati cheklangan jamiyat O‘zbekiston-Italiya qo‘shma korxonasi, Toshkent shahri

IV. Kuch transformatorlari, elektrotermik asbob-uskunalar va xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan korxonalar

22. "Transformator" ochiq aksiyadorlik jamiyati, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri
23. "O'zelektroterm" ochiq aksiyadorlik jamiyati, Namangan shahri
24. "Toshelektromash" ochiq aksiyadorlik jamiyati, Toshkent shahri
25. "Elektromash" ochiq aksiyadorlik jamiyati, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri
26. "Sino" ochiq aksiyadorlik jamiyati, Samarqand shahri
27. "Kinap" davlat ishlab chiqarish birlashmasi, Samarqand shahri

V. Servis xizmati ko'rsatadigan korxonalar

28. "Elektroremont" ochiq aksiyadorlik jamiyati, Navoiy shahri
29. "Anzis" ochiq aksiyadorlik jamiyati, Andijon viloyati, Asaka shahri
30. "Kompyuter-Spekt" mas'uliyati cheklangan jamiyat, Toshkent shahri
31. "Elektronika" mas'uliyati cheklangan jamiyat, Toshkent shahri
32. "Elektrota'mir" mas'uliyati cheklangan jamiyat, Samarqand viloyati, Charog'on posyolkasi
33. "Hisoblash texnikasini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish" mas'uliyati cheklangan jamiyat, Toshkent shahri
34. "TS-Texnologiya" mas'uliyati cheklangan jamiyat O'zbekiston-Amerika qo'shma korxonasi, Toshkent shahri

Vazirlar Mahkamasining
2004-yil 30-apreldagi 205-son qaroriga
2-ILOVA

"O'zeltexsanoat" uyushmasining tashkiliy tuzilmasi

«Ўзлѳтѳхсаноат» уюшмаси

I. Кабель-сим маҳсулотлари, халқ истеъмол товарлари ва янги материаллар ишлаб чиқарадиган корхоналар
1. «Ўзкабель» давлат-акциядорлик жамияти, Тошкент шаҳри
2. «Андиконкабель» очиқ акциядорлик жамияти қўшма корхонаси, Хонобод шаҳри
3. «Вика Энтѳрпрайз» шўъба корхонаси, Тошкент шаҳри
4. «Дойче Кабель АГ Тошкент» очиқ акциядорлик жамияти қўшма корхонаси, Тошкент шаҳри
5. «Спектр» қўшма корхонаси, Тошкент шаҳри
6. «Ўзгласзайдѳ» қўшма корхонаси, Тошкент шаҳри

II. Паст вольтли аппаратлар, шчит қурилмалари, лифтлар ва халқ истеъмол товарлари ишлаб чиқарадиган корхоналар
7. «Ўзѳлектроаппарат» очиқ акциядорлик жамияти, Тошкент шаҳри
8. «Реле ва автоматика» очиқ акциядорлик жамияти, Тошкент шаҳри
9. «SABEN» очиқ акциядорлик жамияти, Тошкент шаҳри
10. «Самарқанд лифт-қурилиши заводи» очиқ акциядорлик жамияти, Самарқанд шаҳри
11. «Элга-Осиѳ» қўшма корхонаси, Тошкент шаҳри
12. «Тошѳлектроаппарат» қўшма корхонаси, Тошкент шаҳри

III. Электрон техника, приборлар, алоқа аппаратлари ва халқ истеъмол товарлари ишлаб чиқарадиган корхоналар
13. «Фотон» очиқ акциядорлик жамияти, Тошкент шаҳри
14. «Алгоритм» очиқ акциядорлик жамияти, Тошкент шаҳри
15. «Оникс» очиқ акциядорлик жамияти, Тошкент шаҳри
16. «Элекор» очиқ акциядорлик жамияти, Тошкент шаҳри
17. Микроѳлектроника илмий-тадқиқот институти, Тошкент шаҳри
18. «Кварк» илмий-ишлаб чиқариш комплекси, Тошкент шаҳри
19. «Фотон» тажриба-конструкторлик бюроси, Тошкент шаҳри
20. «УМТ-Радио» масъулияти чекланган жамият қўшма корхонаси, Тошкент шаҳри
21. «СМГ-Оникс» қўшма корхонаси, Тошкент шаҳри

IV. Куч т электрот налар, товарла диг
22. «Тра акциядор кент вил
23. «Ўз акция На
24. «Тош акция То
25. «Электр дорлик вилоя
26. «Син жамияти
27. «Кин бирлашма

Vazirlar Mahkamasining
2004-yil 30-apreldagi 205-son qaroriga
3-ILOVA

“O‘zeltexsanoat” uyushmasining ijro etuvchi apparati tuzilmasi



ходимларнинг умумий сони — 33,5 штат бирлиги
 бошқарув ходимлари — 22 киши
 ёрдамчи ходимлар — 11,5 штат бирлиги

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 17-son, 201-modda)